

O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDAGI O'SMIRLIK DAVRIDAGI YOSHLARGA PSIHOLOGIYA FANINING DOLZARBLIGI VA MUAMMOLARI

A.Isroilov¹

Jahon tillar fakulteti ta'lim tarbiya maslahatchisi

M.Boymatova²

Jahon tillar fakulteti talabasi

¹⁻²Namangan Davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6993725>

Annotatsiya.Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama kamol topishiga alohida e'tibor va yangi islohotlar,o'zgarishlarni ko'rsatish berishdan iborat.

Kalit so'zlar:Mustaqillik, O'zbekiston, yoshlar, psixogen iste'dod,ilm-fan, taraqqiyot.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Bugungi O'zbekiston-kechagi O'zbekiston emas,bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas" aytishlariga yetarlicha asos bor. Mana so'nggi yillarda ko'pgina masala,muammolar o'z ijobiy yechimini topmoqda. Jumladan:O'rta ta'lim muassasalarida yoshlarga oid davlat siyosati yurgizilmoqda.Yoshlarning har tomonlama kamol topishiga alohida e'tibor qaratilmoqda."O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"gi qonunning 55-moddasida "Jismoniy,aqliy va ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus maktablarda o'qitish to'g'risida"gi qonuni joriy etildi.Avvalombor,bolalarni ruhan va jismonan yetilishida ota-onalarning o'rni beqiyos.Chunki,ularning faol ruhiy rivojlanish davri o'zi unib-o'sgan oilasida shakllanadi."Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytishmagan. Farzandlaridagi qiziqish, iste'dod, his-tuyg'ularini ijobiy tomonga yo'naltirish oilada ota-ona,ta'limda esa pedagoglarning burchidir. Bolalar jismoniy rivohlanish bilan birga shaxs sifatida ham shskllana boradi.Bolalikdan o'smirlikka qadam qo'yish davri,fan tili bilan aytganda "O'tish davri" deb yuritiladi.Bu davr 5-8-sinf (10-13 yosh) oralig'i deb ko'rsatilgan.Bu davrda bolalar o'z dinamikasiga ega bo'lib, unga quyidagilarni kiritish mumkin: Birinchidan-bola shaxsidagi umumiy xususiyatlar (O'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabatlari); Ikkinchidan-Faoliyatining psixologik tuzilish xysusiyatlari (motiv,maqsadlari); Uchinchidan-Anglash tuzilishining rivojlanish darajasi; O'smirlikdagi bu o'zgarishlar rivojlanishning o'ziga xos ko'rinishlaridir Chunki, bolada taqlid, kuzatish, anglash, fikrlash, motiv, maqsad, faoliyat bosqichlarini etapma-etap bosib o'tib, kelgusidagi konstruktiv yoki destruktiv yo'llarini o'smirlik davridayoq tanlaydi.Bunga sabab, film, kino, kitob, ijtimoiy tarmoqlar,sport yoki ilm-fanlardan ruhlanib andoza olishi uning taqdirini belgilab beradi.Shu xysusdagi muammo va yechimlarni inobatda olgan holda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Psixologiya sohasida kadrlash tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonuni dasturi amal qilib belgilab berildi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda: Yurtimizda Maktabgacha ta'lim muassasalarida 2 503 nafar, Xalq ta'limi muassasalarida esa 14 272 nafar pedagog-psiholog kadrlar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari 10 ta Oliy ta'lim muassasalarida "Psixologiya", 19 ta Oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika-Psixologiya" ta'lim yo'nalishlari va shu bilan birga 5717 nafar talaba tahsil olmoqda. Bunday ijobiy ishlar natijasi albatta quvonarli hol. Savabi, xalqimizda, yoshlarimizda psixik jarayon rivojini zamon bilan hamnafas rivojlanayotganligidir.

2017-yildan boshlab, profilaktika inspektorlari va jamoatchilik vakillarining ta'lim muassasalarida profilaktika inspektorlarini 5328 ta umumiy o'rta ta'lim maskanlarida vakillik xonalari tashkil etildi. Davlatimizning bunday sharoitlarni yaratib berishini avvalgi zamonamiz bilan taqqoslasak, "yeru osmondek" farqlari bor. Haqiqatni aytganda, maktablarda psixolog kadrlarni yo'qligi, psixologik bilimning yetarli emasligiga olib keldi, natijada ijtimoiy-psixologik muhit buzilishiga olib kemoqda edi. Jumladan: (Oiladagi nizolar, ajrimlar, erta turmush, ota-ona va farzand munosabatlari, qarindoshlar orasidagi nikoh, maktab davridagi tug'ruq, o'g'rilik va o'z joniga qasd qilish kabi) "ommaviy-madaniyatning salbiy ko'rinishlarini kasb etib kelmoqda edi. Psihologiya pedagogika bilan birga tibbiyot bilan ham chambarchas bog'liq. Inson ta'limotini o'rganuvchi bu fan ba'zan oqsab qoladigan jarayonlarga duch kelib qoladi. Bolalardagi psixik rivojlanishiga halal beruvchi omillar mavjud bo'lib, ular quyidagicha: Ijtimoiy muhiti, xarakteri, fe'l-atvori, individual xususiyatlari va irsiy kasalliklari va hokazolar. Bizga biogenetika fani orqali ma'lum bo'ladiki, gen avloddan avlodga o'tib keluvchi irsiy jarayon. Ko'zga ko'rinmas qon orqali o'tuvchi yaxshi yoki yomon xususiyatlar tarmog'idir. I.P. Pavlovning "Odam oliy nerv faoliyati tiplari to'g'risida"gi ta'limoti orqali odamdagi ruhiy buzilishlarni farqlab berdi. Nerv faoliyatini buzilishi turlicha psixik kasalliklarda namoyon bo'ladi. Masalan: Psixogen kasalligidan ajralib chiqqan nevroz holatlari, isterik xarakterli ko'rinishidagi ruhiy holatlar, reaktiv psixoz, vasvasa, gallyunasiyalar kabi kasalliklar bilan xarakterlanadi. Bu turdagi kasalliklarga o'smir va qariyalar chidamsiz bo'lishadi. Bu borada amerikalik psiholog E. Torndayk o'quvchilarning "Tarbiyaviy kuchlari" va "Tug'ma mayllar" o'rtasidagi psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib muhitning ta'siri ilg'or, tarbiya esa ikkinchi darajalidir, -deya ta'rifladi". Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bolaning psixik rivojlanishi uchun ota-ona, pedagog,

psiholog jamoaviy harakatlar qilishsa, ya'ni boladagi instinkt, mayl, ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltira olishsa, bir butun shaxsni ongsizlik darajasidan Sotsiogenetik konsepsiya qobiliyatlarini taraqqiyotini rivojiga hissa qo'shishgan bo'ladi. Zero, angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan chaqaloqni behuda "Oppoq paxta"ga qiyos etmaydi. U "Oppoq, toza paxta"ning "ruhiyatiga" nimanidir yozish kattalar ixtiyorida ishdir", - deya ta'rif berdi. Bu o'z navbatida bolalarning jamiyat hayotida shaxs sifatida rivojlanishiga asos yaratib beruvchi muhim insonlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, bilamizki barcha sohalarda tub o'zgarish islohotlarni amalga oshirib kelinmoqda jumladan inson huquqlari va erkinliklarini tom ma'noda ta'minlaydigan demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish vazifasini sifatida belgilab oldi. Jumladan: 1992-yil 2-mart sanasida O'zbekiston Respublikasi BMTga mustaqil davlat sifatida a'zo bo'ldi va u chiqargan qonun va takliflarni qabul etib kelmoqda. Xususan: "Bola huquqlari konvensiyasi" bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil, 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga, ya'ni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga binoan ba'zi fanlar qatoriga psixologiya fanini rivojlantirish alohida vazifa sifatida belgilangan. Va bu borada ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda va davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, psixologiya odam ongini o'rganish bilan birga uni boshqarish xususiyatiga ham egadir. Maktablarda psixologiya fani sifatida o'tilsa, bolalar ongi o'zgacha tizimda shakllanib boradi. O'qituvchi va o'quvchi, ota-ona va bola, o'quvchi-o'quvchi munosabatlarida ijobiy natija kuzatiladi. Bolalardagi ruhiy zo'riqish, og'ir depressiya, qaramlilik, ishonchsizlik, qo'rquv kabi ruhiy holatlar o'rnini irodaviy chidamlilik, mas'uliyat, hotirjamlik, o'z ishini mustaqil bajaruvchisi, bitmas-tuganmas ishonchga ega bo'ladi. Ta'kidlab aytganda, ularda psixologik o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan: Ularni ijtimoiy muhitda, xatti-harakatida, ahloqiy fazilatlarida madaniyatli, ibratli shaxs sifatida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktablarda nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilar ham psixologiyaga muhtojdirlar. Chunki bizning davrimiz-axborot-texnologiya asri. Shu muhitda yashayapmiz, ongimiz tezlik bilan rivojlanyapti. Alifbodagi harflarni bilmagan odam qanday o'qiy oladi? O'qisa anglaydi, fikrlaydi. Jamiyat va maktablarda, oliy ta'limlarda va tibbiyotda psixologiya ma'naviyatini keng targ'ib etishimiz kerak. Har bir insonni shundagina kechinma, maqsad, orzu-xayollarini tushuna olamiz. Biz ma'naviyatimizni, oq qog'ozdek orzu-xayolotimizni psixologiya orqali tafakkur

olamimizni pok saqlasak,yurtimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz.Qo'shimcha o'rnida shuni ta'kidlash kerakki,kelajak avlodni Vatanparvar ruhida kamol toptirishda bu fanning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-y.7-fevraldagi PF-497-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

2-O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi "Jismoniy,aqliy va ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus maktablarda o'qitish to'g'risida"gi Qonuni

3-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7.06.2019-yildagi 472-sonli "Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

4-I.A.Karimov-"Barkamol avlod O'zbekiston Taraqqiyotining poydevori".T.-1997.

5-Sh.M.Mirziyoyev-"Yangi O'zbekiston-demokratik o'zgarishlar,keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda"(Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorning savollariga javoblari" kitobi.-T.2021.